

## YUNISEF VA XALQARO TASHKILOTLARNING TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI FAOLIYATI

*Abdug'aniyeva Ma'rifat*

*Rasulova Zamira*

*Boboyeva Iroda*

*University of management and Future  
technologies universiteti, Pedagogika va  
psixologiya yo'nalishi, 310- guruh talabalari*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada YUNISEF, YuNESKO, Jahon banki, BMT Taraqqiyoti dasturi (UNDP) kabi yetakchi xalqaro tashkilotlarning jahon miqyosida ta'lim tizimini rivojlantirish, sifatini oshirish va ta'limga teng imkoniyatlar yaratish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, ularning rivojlanayotgan davlatlarda maktab ta'limini qo'llab-quvvatlash, raqamli ta'limni joriy etish, qizlar ta'limini rivojlantirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'limga bo'lgan huquqlarini ta'minlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlari, grantlar, o'qituvchilar malakasini oshirish va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan loyihalar misolida bu tashkilotlarning global ta'lim siyosatiga qo'shayotgan hissasi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** YUNISEF, YuNESKO, xalqaro tashkilotlar, ta'lim tizimi, global ta'lim, bolalar huquqi, ta'limga teng imkoniyat, ta'lim sifati, rivojlanayotgan davlatlar, raqamli ta'lim, ta'lim islohotlari, grantlar va dasturlar.

YUNISEF (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi) bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning sog'lom va barkamol rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan xalqaro tashkilotdir. Ta'lim YUNISEF faoliyatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va urush yoki tabiiy ofatlardan Zarar ko'rgan hududlarda yashovchi bolalarning ta'limga kirishini ta'minlashga qaratilgan.

YUNISEF maktabgacha ta'limni rivojlantirish, boshlang'ich va o'rta ta'lim qamrovini kengaytirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda ta'limni uzluksiz davom ettirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadi. Masalan, inqiroz va urush hududlarida vaqtinchalik maktablar tashkil etish, o'quv qurollari bilan ta'minlash va o'qituvchilarni tayyorlash orqali minglab bolalarning ta'limdan uzilib qolishining oldi olinadi.

YuNESKO (BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti) global ta'lim siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilot "Ta'lim hamm uchun" (Education for All) va "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" kabi

tashabbuslar orqali dunyo mamlakatlarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni qo'llab -quvvatlaydi. YuNESKO ta'lim sifatini oshirish o'qituvchilar tayyorlash standartlarini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida savodsizlikka qarshu kurash, kattalar ta'limini rivojlantirish va madaniy xilma-xillikni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ham uning muhim vazifalaridan biridir.

Jahon banki va UNDPning ta'limni qo'llab-quvvatlash. Jahon banki ta'lim tizimini rivojlantirish uchun moliyaviy resurslar ajratuvchi yetakchi xalqaro institutlardan biridir. U rivojlanayotgan mamlakatlarda maktablar qurish, o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ta'limni raqamlashtirish va o'qituvchilar malakasini oshirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtiradi. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) esa ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq holda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. UNDP orqli kasb-hunar ta'limi, yoshlar bandligi va inavvatsion ta'lim dasturlari amalga oshiriladi. Bu esa ta'limning mehnat bozori bilan uzviy bog'lanishini ta'minlaydi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar ta'limga teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, qizlar ta'limni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish va qishloq hududlarida ta'lim infratuzilmasini yaxshilash ularning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bundan tashqari, raqamli ta'lim plat formalarini joriy etish, masofaviy o'qitish tizimlarini rivojlantirish ham xalqaro tashkilotlar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa ta'limning zamonaviy, ochiq va moslashuvchan bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, YUNISEF, YuNESKO, Jahon banki, va UNDP kabi xalqaro tashkilotlar ta'lim sohasini rivojlantirishda muhim strategik hamkorlar hisoblanadi. Ularning moliyaviy, texnik va metodik ko'magi tufayli millionlab bolalar va yoshlar sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu tashkilotlarning sa'y-harakatlari nafaat alohida davlatlar, balki butun jahon miqyosida barqaror rivojlanish va inson mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Xaydarov. S.A. (2025). *Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar*. 16-son. 9-11.
2. Xaydarov C. (2024). *Spiritual influence on child education in families*. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Xaydarov C. (2025). *Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir yo'lqazishi*. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). *The role of the use of fine arts in teaching the history of the country*. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.

5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. *NEW RENAISSANCE international scientific journal*. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. *Til va adabiyot.uz*. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. *Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology* ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Xaydarov S. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.
9. Heyneman, Stephen P. *Education and International Development: Trends, Issues, and Policies*. New York: Palgrave Macmillan, 2019.
10. Crossley, Michael & Tikly, Leon. *Globalization and International Education Policy*. New York: Routledge, 2017.
11. World Bank & UNESCO Institute for Statistics. *Education Data for Sustainable Development Goals*. Washington, D.C. & Montreal: UIS, 2021.
12. UNICEF. *Inclusive Education for Children with Disabilities: A Global Review*. New York: UNICEF, 2022.
13. UNESCO. *Teachers and Educational Quality: Monitoring Global Progress*. Paris: UNESCO, 2020.
14. Carnoy, Martin. *Education and Social Transformation: Comparative Perspectives*. Stanford: Stanford University Press, 2016.